

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI
№9-10 SONLI QO'SHMA KENGASH BAYONNOMA QARORI

Toshkent sh.

25 may 2022 yil

Rais – professor N.Q.Xaydarov

Kotib – dotsent A.A.Yuldahev

Institut Kengashi raisi, professor N.Q.Xaydarov quyidagi kun tartibi asosida Kengash majlisini ochdi:

Kun tartibi:

1. Bitiruvchi kurs magistratura talabalari dissertatsiyalarining bajarilish holati
Ma'ruzachi: Magistratura bo'limi boshlig'i t.f.n., dotsent M.A.Xalmatova
2. Institut kasaba uyushmasi faoliyati
Ma'ruzachi: Institut kasaba uyushmasi raisi t.f.n., dotsent A.A.Xasanov
3. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan anonim so'rovnoma tahlili
Axborotchi: Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i F.I.Tojiyev
4. 2021-2022 o'quv yilida TDSIda olib borilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar haqida hisobot.
Ma'ruzachi: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor R.A.Yunusov
5. TDSI akademik litseyi faoliyati va istiqbol rejalari
Ma'ruzachi: TDSI akademik litseyi direktori Sh.A.Mirahimova
6. Pedagoglarning malaka oshirish va qayta tayyorlash ishlarining tahlili, mukammallashtirish bo'yicha takliflar
Ma'ruzachi: Pedagoglarning malaka oshirish va qayta tayyorlash ishlariga mas'ul t.f.d., dotsent Murtazayev S.S.
7. Professor o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga saylash.
8. O'quv-uslubiy ishlarni tasdiqlash.
9. Turli masalalar

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi birinchi masala: Bitiruvchi kurs magistratura talabalari dissertatsiyalarining bajarilish holati

Ma'ruzachi: Magistratura bo'limi boshlig'i t.f.n., dotsent M.A.Xalmatova

QAROR QILINDI:

1. Magistrlik ilmiy-tadqiqot ishidan olingan natijalarni xalqaro bazalarda indeksatsiya qilinuvchi xorijiy ilmiy nashrlarda chop etish ko'paytirilsin;

Mas'ul –Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Magistratura bo'limi boshlig'i

Muddat – doimiy

2. Magistrlik ilmiy – tadqiqot ishlari sifatini yaxshilash maqsadida ilmiy markaz, ilmiy laboratoriyalar va institut klinikasi zarur asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta'minlansin;

Mas'ul –Ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi, reja-moliya bo'limi boshlig'i

Muddat – 3 oy muddatda

3. Magistrlik dissertatsiya ishlari va unga tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishni magistratura to'g'risidagi Nizomning VII bandiga (Magistrlik dissertatsiya ishining tuzilishi va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar) asosan tashkil etilsin;

Mas'ul –Magistratura bo'limi boshlig'i, kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

4. Magistrlik dissertatsiya ishlariga xorijiy yetakchi mutaxassislar ilmiy maslahatchi va taqrizchi sifatida jalb etilsin;

Mas'ul –Magistratura bo'limi boshlig'i, kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

5. Magistrlik dissertatsiya ishlarida sustkashlik qilayotgan professor-o'qituvchilar rahbarlik qilishi chegaralansin;

Mas'ul –Magistratura bo'limi boshlig'i, kafedra mudirlari
Muddat – 3 oy muddatda

6. Magistrlik dissertatsiya ishlarini antiplagiat tizimida tekshirish yo'lga qo'yilsin;

Mas'ul –Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Magistratura bo'limi boshlig'i
Muddat – 3 oy muddatda

7. Magistrlarni ilmiy ishlanmalarini chop etish faolligini oshirish maqsadida doimiy (xar kvartalda chiqadigan) ilmiy ommabop jurnal nashriyoti tashkil qilinsin.

Mas'ul –Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Magistratura bo'limi boshlig'i
Muddat – 1 oy muddatda

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi to'rtinchi masala: 2021-2022 o'quv yilida TDSIda olib borilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar haqida hisobot.

Ma'ruzachi: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor R.A.Yunusov

QAROR QILINDI:

1. Institut professor-o'qituvchilari va talabalarining badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish va ARM fondini boyitish maqsadida badiiy adabiyotlar xarid qilinsin;

Mas'ul – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, ARM direktori, Ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi, reja-moliya bo'limi boshlig'i
Muddat – 3 oy muddatda

2. Tyutorlar ish faoliyati yaxshilash maqsadida har bir tyutori plashetlar bilan ta'minlansin;

Mas'ul – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, Ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi, reja-moliya bo'limi boshlig'i
Muddat – 3 oy muddatda

3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2022 yil 24 martdagi 88-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Odob-axloq kodeksi asosida institut ichki tartib-qoidalarini qayta ishlab chiqilsin va tasdiqlansin;

Mas'ul – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari

Muddat –1 oy muddatda

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi beshinchi masala: TDSI akademik litseyi faoliyati va istiqbol rejalari

Ma'ruzachi: TDSI akademik litseyi direktori Sh.A.Mirahimova

QAROR QILINDI:

1. Akademik litsey bitiruvchilarining bilim, malaka va ko'nikma darajasini davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha YDAsi yuqori saviyada o'tkazilsin. hamda bitiruvchilarning OTMga kirish monitoringi yuritilsin;

Mas'ul – TDSI akademik litseyi direktori, O'quv ishlari bo'yicha prorektor
Muddat – doimiy

2. Akademik litseyning 2017-2030 yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlantirish dasturidagi vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida akademik litseyning moddiy texnik bazasi yanada takomillashtirilsin;

Mas'ul – TDSI akademik litseyi direktori, Ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi, reja-moliya bo'limi boshlig'i
Muddat – 3 oy muddatda

3. Ta'lim berishning yangi uslub va shakllarini qo'llashda, o'quv adabiyotlari va o'quv uslubiy qo'llanmalar yaratishda, shuningdek o'quvchilarning OTMga kirish ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishiga aniq hissa qo'shgan litsey pedagog hodimlari Nizom asosida moddiy rag'batlantirilsin;

Mas'ul – TDSI akademik litseyi direktori, Ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi, reja-moliya bo'limi boshlig'i
Muddat – doimiy

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.R.Baymakov zimmasiga yuklatilsin.

Institut Kengashi raisi



N.Q.Xaydarov

N.Q.Xaydarov